

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

№ 01

Paxtaobod tumani

05 Iyul 2022 y

“XAMKOR METAN GAZ” MCHJ (bundan buyon - «Sotuvchi» deb yuritiladi), Nizom asosida xarakat qiluvchi direktori Birmatov O'ktamjon Raximovich nomidan, bir tomondan, va ХАМКОР МЕТАН ГАЗ МЧЖ (korxonasi nomi) ХАМКОР (asos) asosida xarakat qiluvchi, (keyingi o'rinlarda «Sotib oluvchi» deb yuritiladi) nomidan xarakat qiluvchi raxbar Ф. Усманов (FIO raxbar) nomidan, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 «Sotuvchi» o'ziga tegishli siqilgan tabiiy gaz (metan)ni «Sotib oluvchi»ga tegishli avtomashinalariga yetkazib berish Paxtaobod tumani Do'stlik massivi xududida joylashgan avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH) orqali amalga oshirish, «Sotib oluvchi» esa ushbu tovarni qabul qilish va oldindan xaqini to'lash majburiyatini oladi. Tovar xaqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1 qismidagi jadvalida ko'rsatilgan.

№	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori (jami)	Birlik maxsulot narxi (QQS bilan)	Umumiy summasi (QQS bilan)
1	Siqilgan tabiiy gaz (metan)	Metr. kub	<u>10 700</u>	<u>2800</u>	<u>29 960 000</u>
	Jami:		<u>10 700</u>	<u>2800</u>	<u>29 960 000</u>

Shartnomaning umumiy miqdori 29 960 000 = (summa so'zlar bilan) (summa so'zlar bilan).

2. TO'LOV SHARTLARI

2.1 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanganidan so'ng «Sotib oluvchi» tomonidan maxsulot uchun oldindan 100% to'lovni amalga oshiradi, «Sotuvchi» o'ziga tegishli siqilgan tabiiy gaz (metan)ni «Sotib oluvchi»ga tegishli avtomashinalariga Paxtaobod tumani Do'stlik massivi xududida joylashgan avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH) orqali yetkazib beradi.

2.2 To'lov shakli: Pul «Sotuvchi»ning xisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.3 Soliqlar, xom-ashyo, materiallar, elektr energiya, tabiiy gaz baxosidagi o'zgarishlar siqilgan tabiiy gaz (metan)ni sotish baxosiga o'zgartirish kiritishlari mumkin.

3. TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI VA SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BAJARMAGANLIGI YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIGI UCHUN JAVOBGARCHILIGI

3.1 «Sotuvchi»: - avtomobil xaydovchisida guvoxnoma, yo'llanma, gaz balonini o'rnatish va sinovdan o'tkazish dalolatnomalari va boshqa tegishli me'yoriy xujjatlarning (tegishli qonunlarda tekshirish majburiy xujjatlar) mavjudligini tekshiradi, - avtomobil xaydovchisi AGTKSHda belgilangan joyda yo'lovchilarni tushirib, faqat o'zi avtomobilda kolonka tomonga texnika xavfsizligini saqlagan, navbatni, boshqa qoidalarni buzmagani xolda kirishini nazorat qiladi, - oldindan to'liq to'lov amalga oshirilgan taqdirda asossiz gaz yetkazib berishni to'xtatmaydi, asossiz gaz yetkazib berishni to'xtatma xar bir xolat uchun kechiktirilgan summaning xar bir kun uchun 0.5% miqdorida jarima to'laydi. Jarimaning umumiy summasi oldindan to'langan summaning 10% dan ortmaslik sharti bilan. - AGTKSH ga gaz bilan ta'minlash korxonasi tomonidan ma'lum bir sabablarga ko'ra gaz yetkazib berishni to'xtatish, AGTKSH ning ishlab chiqarish uskunalaridagi nosozlik tufayli uni bartaraf etish mobaynidagi to'xtalishlar, «Sotib oluvchi»ning tabiiy gaz uchun to'langan mablag'ning gaz quyish natijasida tugab qolishi yoki avtomashinalarda yetarli darajada texnik xujjatlarning mavjud emasligi va shunga o'xshash sabablar «Sotib oluvchi»ga gaz yetkab bermaslikka asos bo'la oladi. - amaldagi "GOST"ga muvofiq siqilgan tabiiy gaz (metan)ni ishlab chiqaradi va yetkazib beradi.

3.2 «Sotib oluvchi» -siqilgan gaz olish xuquqiga egaligi to'g'risida texnik xujjatlarni gaz olish uchun kelgan o'z avtomashinalarida mavjud bo'lishini ta'minlash, -avtomobilning va undagi gaz ballonlarining texnik xolatiga javobgar bo'ladi, -agar oldindan to'lovdan qarzdorligi mavjud bo'lib gaz olgan taqdirda muddati o'tgan qarz uchun 0.5% umumiy qarzdorlikning 10% miqdoridan ortmagan xolda jarima to'laydi.

4. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

4.1 Ushbu shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy xisoblanadi. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan xolda yo'l qo'yiladi.

5. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq xolda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnoma bildirish tartibiga rioya qilingan xolda xal etiladi.

5.2 Bildirgan talabnomasiga qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida javob olmagan yoki talablari qanoatlantirilmagan taqdirda, xuquqi buzilgan deb xisoblovchi taraf nizoni xal qilish uchun da'vo arizasi bilan da'vogar joylashgan iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqli.

6. FORS MAJOR XOLATI

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi xolatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors- major) xolatlar natijasida vujudga kelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladi.



6.2 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) xolatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat xodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy xolatlar (urush xolati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni ta'qiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan xolatlar kiradi.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1 Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega deb xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

7.2 Shartnomaning amal qilish muddati: shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrga qadar.

8. TOMONLARNI YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Sotuvchi»:	«Sotib oluvchi»:
Nomi: "XAMKOR METAN GAZ" MCHJ	Nomi: <u>Автомобильная станция ВЛСБ</u>
Xuquqiy manzili: Paxtaobod tumani Do'stlik massivi	Xuquqiy manzili: <u>Автомобильная станция</u> <u>Ю. Оматбеков кўчи № 5</u>
X/R: 2020 8000 9002 3457 0001	X/R: <u>1000 2126 0034 017072301054002</u>
Bank: ANDIJON SH., CHEKI "HAMKORBANK" AT BANKINING BOSH OFISI	Bank: <u>Узб Рес ШБ ББ ХКАМ</u> <u>Ташкент ш</u> <u>МФО: 00014</u> <u>ИНН: 202189344</u>
MFO: 00083 INN: 302 505 777	MFO: _____ INN: _____
Jamiyat direktori: O'. Pirmatov	«Sotib oluvchi» korxonasi raxbari
Imzosi: 	Imzosi: 

Huquqshunos:

(imzo)


M. Rahimov